

XRONOTOP: BADIY VA TARIXIY HAQIQAT

Samandarova Sojida Furqat qizi,

*O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
tayanch doktoranti*

sojida.samandar0791@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada badiiy adabiyotda makon va zamon muammosi amerikalik adib Tomas Harrisning romanlari misolida Mixail Baxtinning xronotop nazariyasiga asoslangan holda ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan yoritildi. Tomas Harris asarlarida makon va zamonning ifodalanish ko‘lami, makon va zamon chegaralarining belgilanishi va qamrovi, xronotoplarining syujet va janriy xususiyatlar bilan uyg‘unligi hamda ularning psixologik trillerdagi badiiy olam haqiqatining turli manzaralarini yaratishda ishtirok etishi bo‘yicha olib borilgan tahlillarning natijalari atroflicha yoritib berildi.

Kalit so‘zlar: xronotop, badiiy haqiqat, tarixiy haqiqat, psixologik triller, badiiy psixologizm, retrospeksiya, prospeksiya, psixologik portret, Tomas Harris, diskretiklik.

Аннотация. В данной статье проблема хронотопа в художественной литературе освещается с научно-теоретической и практической точки зрения, основываясь на теории Михаила Бахтина, на примере романов американского писателя Томаса Харриса. Приведены результаты проведенного анализа масштабов выражения пространства и времени в произведениях Харриса, определения и освещения границ пространства и времени, гармонии хронотопов с сюжетными и жанровыми особенностями, их участия в создании произведений Харриса. подробно освещались различные сцены реальности художественного мира в психологических триллерах.

Ключевые слова: хронотоп, художественная реальность, историческая реальность, психологический триллер, художественный психологизм, ретроспекция, проспекция, психологический портрет, Томас Харрис, дискретность.

Abstract. In this article, the problem of time and space in fiction has been covered from a scientific-theoretical and practical point of view, based on the theory of Mikhail Bakhtin, as an example of the novels of the American writer Thomas Harris. The results of the analyzes carried out on the scale of expression of space and time in Harris's works, the definition and coverage of the boundaries of space and time, the harmony of chronotopes with the plot and genre features, and their participation in the creation of various scenes of the reality of the artistic world in psychological thrillers have been thoroughly covered.

Keywords: chronotope, literary reality, historical reality, psychological thriller, artistic psychologism, retrospection, prospection psychological portrait, Thomas Harris, discreteness.

Kirish. Inson ijtimoiy munosabatlarning subyekti hisoblanar ekan, uning hayoti zamon va makondan tashqarida kechishi mumkin emas. Adabiyot esa so‘z san‘ati sifatida ijtimoiy munosabatlarning badiiy in‘ikosi o‘laroq dunyoga keladi. Makon va zamon o‘rtasidagi chambarchas bog‘liqlikni teran anglagan tadqiqotchi olim Mixail Baxtin ilk bor ushbu ikki tushunchani birlashtiruvchi “xronotop” (grekcha “chronos” – zamon, “topos” – makon) istilohini qo‘llaydi [2;121]. Demak, xronotop istilohining adabiyotshunoslikka olib kirilishi M. Baxtin nomi bilan bog‘liq. Mazkur atama

“UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QO‘YISHDA FILOLOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

dastlab matematik tabiatshunoslik sohasida qo‘llanilgan bo‘lib, Albert Eynshteynning nisbiylik nazariyasi asosida fanga olib kirilgan hamda asoslab berilgan [3;43-44]. Badiiy adabiyotga esa u makon va zamonning ajralmasligini namoyish etish maqsadi o‘laroq kirib kelgan. Adabiyotshunos olim N.Gey badiiy asarni obrazlar ritmining zamon-makonda amalga oshiradigan qaydi, deb atash asnosida *“Obraz, albatta, shunday ma’noda berilganki, uning istalgan har qanday mazmuni kim bilandir bog‘langan, qayerdadir va qachonlardir sodir bo‘lganligini chamalaydi. Bu yozuvchi uchun zarur bo‘lgan uch boshlang‘ich miqdor – badiiy olamning uch o‘lchovidir. Mazkur o‘zgarimas son-miqdorlarsiz obraz o‘zini namoyon qila olmaydi”*, deya ta’kidlaydi [4; 239]. Zamon va makon badiiy syujetning tarkibiy qismi yoki unsurlaridan biri emas, balki uning omili, hayotiyliigi va haqqoniyliigi manbai hisoblanadi. Makon va zamon syujetga o‘z muhrini bosadi uni jonlantiradi, ta’sirchanligini oshirib, mazmunini boyitadi.

Har qanday hodisa badiiy zamon va makonda yuz beradi. Zamonning o‘zgarishi makonga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi, negaki ikki tushunchaning dialektik birligi badiiyatning asosiy qonuniyatlaridan biri sanaladi. Badiiy asardagi shakl va mazmun birliklari singari makon va zamonni ham alohida estetik kategoriya sifatida emas, bir butunlikda o‘rganish maqsadga muvofiq. Badiiy asarning epik turida, jumladan, romanda xronotop ifodalanishining o‘ziga xos badiiy maydoni mavjud bo‘ladi. Ushbu maydonda boshqa adabiy turlarga qaraganda yozuvchining tasvir imkoniyatlari nisbatan kengroq bo‘ladi.

Asosiy qism. “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”da makon va zamon tushunchalariga quyidagicha ta’rif beriladi: “Makon (fazo) va zamon (vaqt) – borliqning umumiy yashash shakllari; makon (fazo) dunyoni tashkil etuvchi obyektlar va ulardagi tarkibiy nuqtalarning o‘zaro joylashish tartibi, ko‘lami va miqyosini ifoda etsa, zamon (vaqt) o‘sha dunyoda sodir bo‘luvchi hodisa va jarayonlarning ketma-ketlikda ro‘y berishi va davomiyligini ifodalaydi. Makon (fazo) juz’iy holda ham, umumiy holda ham moddiy dunyoning holatiga bog‘liq. Fanda uzoq davr mobayniad faylasuflarimiz makon (fazo)ni zamon (vaqt)dan ajratib tushuntirib keldilar. Real makon (fazo) va zamon (vaqt)ning inson tasavvurida idroko etilishi perseptual hodisadir. Aniq fanlar va texnikaning rivojlanishi makon (fazo) va zamon (vaqt) haqidagi tasavvurlarni tubdan o‘zgartirdi. Makon (fazo) va zamon (vaqt)ning turli-tuman modellarini tadqiq qilishga keng yo‘l ochilishi natijasida bu ikki istilohning o‘zaro aloqador ekanligi isbotlandi”[10; 170].


Falsafaning borliqni tadqiq etuvchi sohasi bo‘lmish ontologiya (grekcha “*ontos*” – “*mavjudlik*”, “*logos*” – “*ta’limot*”) zamirida ham makon va zamon tushunchalar

“UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QO‘YISHDA FILOLOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

yotadi. Hamma narsaning ibtidosi ham, intihosi ham yo‘qlik bo‘lib, u chekingan joyda borlik paydo bo‘ladi. Borliq shunday mavjudlikki, u yo‘qlikdan yo‘qlikkachadir. Borliqning asosiy sohalari tabiat, jamiyat va ongdir. Ularni birlashtirib turuvchi umumiy omil – bu ularning mavjudligidir. Harakat, fazo, vaqt, in’ikos, ong va boshqa narsalar borliqning atributlari, uning shu jism ekanligini anglatuvchi xususiyatlaridir. Moddiy jismlar va ularni tashqil etuvchi unsurlar o‘rtasidagi aloqadorlik harakatni akslantiradi. Makon va zamon fazo va vaqtning tashqi, nisbiy xususiyatlarinigina o‘zida aks ettiradi. Fazo narsalar joylashadigan joy, vaqt esa hodisalar sodir bo‘ladigan muddat ma’nosida qo‘llaniladi. Dialektik tafakkur sohibi bo‘lgan F. Gegel makon mustaqil bo‘lishi mumkin emasligini qayd eta turib, shunday deb yozadi: *“Hamma narsa vaqtda yuzaga kelmaydi va yuz bermaydi, balki vaqtning o‘zi shu shakllanish, yuzaga kelish va yuz berishdir”* [5; 150].

Vaqt tartibi va yo‘nalishi:



Xronotop dialektikasida badiiy adabiyotdagi badiiy zamon badiiy makon uyg‘unligida o‘zlashtiriladi. Ushbu dialektikada falsafa va estetika fanlaridagi an’anaviy “makon va zamon” tushunchalari “zamon va makon” tushunchasida yaxlitlashadi. Badiiy asarda makon yetakchilik qilib turgan o‘rinda zamon muammosi orqa fonga o‘tishi hodisasi kuzatiladi. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, tadqiqot obyekti bo‘lmish Tomas Harris tetralogiyasi psixologik triller janrida yozilganligi hamda ushbu janr xususiyatlari to‘asar to‘o‘zining kulminatsion nuqtasiga yetib borgunicha syujet asta-sekin yoritib borilishini, bu vaqtda esa shubha va taranglik oshib borishi bilan sifatlanganligi uchun diskretik vaqt birlamchi hisoblanadi. “Qo‘zichoqlar sukunati” romanidan olingan ushbu parchalarda buning ifodasi aks etganligini ko‘rish mumkin:

“Pembri va Boyl tajribali turma nazoratchilari edi. Ularni ataylab doktor Lekterga ko‘z-quloq bo‘lishlari uchun Brashi-mauntin qamoqxonasidan olib kelishgandi. Ular Memfisga Lekterdan oldinroq yetib kelib, kamerani sinchiklab ko‘zdan kechirib chiqishgandi. Doktor Lekterni eski sud binosiga olib kelishganida uni ham yaxshilab tekshiruvdan o‘tkazishgandi. Avvaliga erkak hamshira uning to‘g‘ri ichagini ko‘rikdan o‘tkazdi, bu vaqtda ham uning egnidagi tiydirish ko‘ylagini yechishmagandi. Uning ust-boshini ham qat’iy tekshiruvdan o‘tkazib, tanasi uzra metall detektor yuritishdi. Boyl va Pembri mahbus bilan darhol til topishib ketishdi. Tekshiruv jarayonida u bilan sokin va muloyim ohangda gaplashishdi...

“UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QO‘YISHDA FILOLOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

Doktor Lekter panjaraga mahkamlanganidan so‘nggina Pembri stolining yoniga borib, kameraning kalitini tortmadan oldi. Kamaridagi xalqaga rezina dubinkasini, cho‘ntagiga gaz balonchasini soldi-da, kameraga qaytdi. Kamera eshigini ochgach, Boyl patnisni olib kirib qo‘ydi. Eshikni qulflaganidan keyin Pembri kalitni qaytarib tortmaning ichiga qo‘ydi va mahbusning qo‘llaridagi kishanni yechdi. Doktor kishansiz bo‘lgan paytda kalit bilan kamera panjarasiga umuman yaqinlashmadi”[6; 283]. Ushbu parchada qahramonlar ado etayotgan xatti-harakatlar birin-ketin, uzviylik buzilmagan holda ifoda etiladi. Asarning boshqa bir o‘rnida esa T.Harris buning aksini qo‘llab, oniy ish-harakatlarni nihoyatda sekinlashtirib tasvirlaydi va bu orqali kulminatsion nuqta oldidan o‘quvchini qiziqtirib, intiqtiradi:

“Endilikda kursisidan jilmay o‘tirgan doktor uchun vaqt keskin ravishda sekinlashib qolgandek va alohida-alohida lahzalarga bo‘linib ketgandek tuyuldi. Bu odatda inson hal qiluvchi qadamni qo‘yayotganida yuz beradigan holat edi. Unga musiqa ham o‘z ritmini yo‘qotmasdan mayda bo‘laklarga ajralib borayotgandek, kumushdek jarangdor ohanglar uning atrofini o‘rab turgan panjaralarning temir to‘siqlariga urilib, notalarga parchalanayotgandek tuyuldi. Yuzida hech qanday ifoda aks etmayotgan doktor Lekter o‘rnidan turib, tizzasining ustida turgan qog‘oz sochiqning polga asta-sekin uchib tushishini kuzatib turdi. Sochiq uzoq vaqt havoda muallaq qolib, stolning oyog‘iga yopishdi, hilpiradi, teskari ag‘darildi, nihoyat po‘latdan ishlangan polga tushdi. Lekter uni poldan olishga urinmadi” [6;286].

Baxtin “Romanda zamon va xronotop shakllari” nomli asarida qadimiy yunon romanlarining janr tarmoqlarini belgilab beradigan tipologik turg‘un (barqaror) yetakchi xronotoplarni aniqlagan va tadqiq etgan. Bular sirasiga quyidagilar kiradi:

- a) avantyr roman;
- b) avantyr-maishiy roman;
- c) biografik romandagi xronotoplar.

Avantyr zamon hududida biografik vaqt hisobga olinmaydi. Makon keng, vaqt tarixiy jihatdan mahalliyashtirilmagan, badiiy olamning miqyosi va xilma-xilligi mavhum ko‘rinish kasb etadi [1; 234-407]. Roman–yirik epik shakl. Uning badiiy hududida ulkan tarixiy-ijtimoiy voqea-hodisalar, islohotchilik, milliy-ozodlik harakatlari, urush va tinchlik kabi muammolar o‘z ifodasini topadi. Ushbu fikr, asosan, romanning klassik (an’anaviy) turiga xos. Bunday badiiy shakl, o‘z-o‘zidan, ko‘lamdor va serqirra xronotopni taqozo etgan. Ayniqsa, katta epik janrning alohida badiiy shakli bo‘lgan roman-epopeyada bunday ko‘lamdor xronotopni yaqqol ko‘rsa bo‘ladi. Roman adabiy janr sifatida o‘z badiiy hududiga keng falsafiy-axloqiy, nazariy ta’limotlarni sig‘dirishga qodir. Unda qahramon qalbi butun teranligi bilan

“UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QO‘YISHDA FILOLOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

mufassil, badiiy dalillangan holda aks etadi. Buni badiiy shaklning hajmiga bog‘lab izohlovchilar ham mavjud, biroq, yigirmanchi asrning ikkinchi yarmidan boshlab roman hajman kichraya boshladi va baribir o‘z maqomini saqlab qola oldi. Bunga u “roman tafakkuri” yoki “roman yuki” orqali erishgan. Bundan kelib chiqadiki, gap hajmda emas, aksincha badiiy tafakkurning kengligi va chuqurligidadir.

Natijalar va muhokama. Xronotopni turli kategoriyalar asosida tasniflash amaliyoti O‘. Nazarov hamda B. To‘rayevalarning ilmiy ishlarida o‘zining yorqin ifodasini topgan. Nazarov yigirmanchi asr milliy romanchiligida xronotopning an’anaviy, yonma-yon (parallel) va sinkretik shakllarini ajratib ko‘rsatgan. XX asrning 60-yillarigacha o‘zbek romanlarida vaqtning xronologik tartibda tasvirlanishi, voqealarning ma’lum bir vaqt oqimida kechishi va retrospeksiya (eslash) yoki qoliplash singari xususiyatlar bilan sifatlanuvchi an’anaviy xronotop ustuvor bo‘lib kelgan. XX asrning 70-yillaridan esa badiiy matnlarda bir nechta xronotoplarning badiiy ifoda topishi, bir-biri bilan qorishib ketgan holda namoyon bo‘lishi, makon chegaralarining buzilib, asosiy e’tibor qahramon va personajlarning ichki ruhiy olami oqimlariga qaratilishi an’anaga aylandi [7; 28-29]. Adabiyotshunos olim B.To‘rayeva xronotopning ham badiiy asar strukturasi boshqa unsurlari singari muallifning olam tasvirini qayta ifodalash shakli ekanligini bayon etish asnosida u badiiy olam haqiqatining turli manzaralarini yaratishda ishtirok etishini, u so‘z san’atkorining o‘ziga xos ijod olamini tashkil etuvchi ajralmas tarkibiy qism sifatida ijodkor metodi va uslubining o‘ziga xos tomonlarini belgilaydi, milliy va umumbashariy g‘oyalar rivojiga xizmat qilishini ham ta’kidlab o‘tadi [8; 261]. A.Temirbolatning ilmiy-nazariy umumlashmasida xronotop inson ruhiy olami bilan bevosita mushtaraklikda tasvirlanishi hamda mega, makro va mikro xronotoplarning aloqadorligi ayonlashadi. Bular olam va odam munosabatlarini ruhiyat, jamiyat va koinot kengligida aks ettiradi. Birinchisi, makon va zamonda kechayotgan o‘zgarishlarni koinot va yer yuzi; ikkinchisi, insonlar o‘rtasida kechadigan real voqea-hodisalar; uchinchisi, inson ruhiyati bilan ong va tafakkuri ostidagi ziddiyatlarni ifodalaydi [9; 78].

Badiiy matn – roman maydonidagi xronotop shakli muallifning dunyoqarashi, adabiy-falsafiy konsepsiyasi, badiiy niyati bilan chambarchas bog‘liq. Buning isbotini Tomas Harrisning romanlari misolida ko‘rish mumkin. U moziyning aniq bir davrini badiiy asar uchun manba sifatida tanlab olar ekan, muayyan bir dunyoqarash, fasafa ehtiyoji, talablariga asoslangan. Uning tetralogiyasi yozilish tartibida umumiy retrospeksiya kuzatilsa ham, ya’ni dastlabki romanlar bo‘lmish “Qizil ajdarho” va “Qo‘zichoqlar sukunati” markazidagi qahramon Gannibal Lekterning yoshlik yillari,

“UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QO‘YISHDA FILOLOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

uning ushbu ikki romandagi xatti-harakatlarini keltirib chiqargan bolalik kechinmalari to‘rtinchi romanda aks etsa ham, alohida olingan holatda har bir romanda voqealar ketma-ketligida uzviylik va izchillikka qat‘iyan amal qilinadi, badiiy zamon xronologik, ya‘ni izchil-davomiy xususiyatga ega. Romanlardagi voqealar oldinma-keyin tasvir etib boriladi, vaqt oqimi va qahramonlar hayoti uzviy ravishda ifoda qilinadi. Zarurat tug‘ilgandagina retrospektiv tasvirdan foydalaniladi: yozuvchi yoki biror personaj tilidan avvalgi zamonga oid voqea hikoya qilib beriladi. Shu o‘rinda badiiy xronotopning ikkinchi qismi bo‘lgan makon tasviridan Harris nechog‘lik mahorat bilan foydalanganligi xususida to‘xtalib o‘tish joiz. “Qizil ajdarho” romanida makonni bildiruvchi joylar asosan AQSHning turli shtatlari (Virjiniya, Alabama, Illinoys, Jorjiya)dan iborat bo‘lsa, keying uchta romanda voqealar silsilasi ta‘sirida makon boshqa davlatlarga, xususan, Fransiya, Italiya va Livanga ham ko‘chishiga guvoh bo‘lishimiz mumkin.

Xulosalar. Xulosa shuki, badiiy asar ijtimoiy munosabatlar in‘ikosi sifatida maydonga kelar ekan, unda muayyan bir zamonda muayyan bir makonda kechgan voqealar o‘z ifodasini topishi tabiiy. Falsafa uchun zamon va makon ijtimoiy voqelikka daxl qiluvchi tushunchalar bo‘lsa, adabiyot va estetika muammolari sarhadiga kirgan zamon va makon badiiy voqelikka aloqadordir. Ikkala sohada ham zamon va makon bir-birini to‘ldiruvchi hodisalar sifatida talqin etiladi hamda ularni bir-biridan ayro tarzda tasvir va tadqiq etish ilojsizdir. Xronotop adabiy-estetik kategoriya sifatida badiiy asar syujeti, qahramonlari, umuman olganda, butun adabiy-badiiy strukturasi o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. Shu sababli ilmiy-tadqiqot ishlarida bu muammoga e‘tibor berish hamda o‘rganish adabiyotshunoslikning o‘zak asosiy xususiyatlarini ochish, aniqlash, shu asosda matn badiiyati darajasini belgilashda ayriча ahamiyatga ega. Badiiy zamon va badiiy makon asarni adabiy shakl sifatida shakllantiruvchi asosiy vositalar qatoriga kiradi.

Adabiyotlar:

1. Бахтин М. М. Формы времени и хронотопа в романе. Очерки по исторической поэтике. – М.: Художественная литература, 1975. –С. 234-407.
2. Бахтин М. Литературно-критические статьи. – М.: Художественная литература, 1986.–С.121.
3. Baxtin M. Romanda zamon va xronotop shakllari. –Toshkent: “Akademnashr”, 2015.–B.43-44.
4. Гей Н. Искусство слово. –М.:Наука, 1967. –С.239
5. Миронов А.В. Время и музыка в философии Ф. Гегеля // Наука. Искусство. Культура. 2016. №3 (11)–С.150. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/vremya-i-muzyka-v-filosofii-f-gegelya>

“UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QO‘YISHDA FILOLOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

6. Harris T. Qo‘zichoqlar sukunati. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2023.–B.283.
7. Nazarov O‘. Omon Muxtror romanlarida badiiy xronotop muammosi. Filol.fan.dok.diss. Qarshi, 2018. –B.28-29.
8. To‘rayeva B. Zamonaviy romanchilikda xronotop poetikasining qiyosiy-tipologik tadqiqi (Ch.Aytmatov va N.Norqobilov romanlari misolida). Filol.fan.dok.diss. Toshkent, 2022. –B. 261
9. Темирболат А.Б. Категории хронотопа и темпорального ритма в литературе. Монография. – Казахстан: Алматы, 2009. – С.78.
10. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 9-jild. –Toshkent: O‘ME Davlat ilmiy nashriyoti, 2005. –B.170